



Gap mazmuniga mos soʻzlarni qoʻyib oʻqing.



day serob boʻlgan,



day aziz boʻlgan.



yer yuzidagi har bir tirik jonzot uchun eng muhim hayot manbai hisoblanadi.

Nima uchun siz shu soʻzni tanladingiz?
Fikringizni izohlang.



Suv haqida 3 ta maʼlumot ayting.



Suvda xotira bor

Odamzod suvni hayot avvalida koʻrgan edi, biroq uning xususiyatlari hali ham toʻliq anglab yetilgani yoʻq. Yapon olimi Massaro Emoto hamda rus professori Konstantin Korotkovning suv xosiyatlari haqidagi tadqiqotlari, fikr-xulosalari sizni ham hayratlantirishi tabiiy.

Barcha suyuqlik muzlaganda torayadi, suv esa kengayadi. Har qanday modda qattiq holda suyuqligiga qaraganda ogʻir boʻladi, suvda esa buning aksi. Muz uning yuzasida qalqib turadi, fizika qonunlarga koʻra choʻkib ketmaydi.

Suvning yana bir antiqa xususiyati – u ikki xil gaz birikmasi (kislorod va vodorod)dan tashkil topgan. Boshqa gazlar o‘zaro birlashib, suyuqlik hosil qila olmaydi.

Suv bir vaqtning o‘zida uchta – suyuq, qattiq va gazsimon holatda bo‘la oladi. Erta bahorda, tong chog‘i hali muzi erib ulgurmagan hovuz yoniga boring, bunga o‘zingiz amin bo‘lasiz.

Yana bir nodir xususiyati, suv nimaiki bo‘lsa, eslab qoladi. Shveytsariyalik olimlar buni tasdiqlovchi hayratomuz tajriba o‘tkazishdi. Ular Jeneva ko‘lining qirg‘oq suvida bir nechta tuz zarrachalarini eritishdi. So‘ng narigi qirg‘oqda uskunalar yordamida tekshiruv o‘tkazishdi va tuz emas, tuz haqidagi xotira ma‘lumotini qayd etishdi. Narigi qirg‘oqdagi tuzning o‘zini aniqlashga uskunalarining sezuvchanligi yetishmagan bo‘lardi.

Ammo ko‘l hovuzidagi ulkan molekula ushbu xotirani qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlab qolgan.



Biologlarning aniqlashicha, suv tirik organizmlarni nafaqat sug'oradi, balki ular bo'ylab axborot tashiydi. Aynan suv vositasida tirik jism organlari bir-birining holatidan boxabar bo'lib, qanday funksiyalar zarurligini bilib turishadi. Suv bu axborotlarni qayerdan olishi to'g'risida esa faqat taxmin qilish mumkin.

Suv hatto musiqani "tinglay" oladi. Ha-ha, Betxoven simfoniyalari yangraganda bir xil kristallar, Motsart musiqasi ostida boshqa xildagilari hosil bo'ladi. Shopen ohanglari Bax organi sadolariga qaraganda mutlaqo boshqacha kristallarni paydo qiladi...

Suv bizning tuyg'ularimizga javob beradi. Ko'plab tajribalarda ayon bo'lishicha, bizdagi ijobiy va salbiy his-tuyg'ular suvning tarkibini o'zgartirib yuboradi, inson sifatiga qarab, go'zal va badburush kristallar hosil bo'ladi.

"Bolalar adabiyoti" jurnalidan



1. Matndan suv haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?
2. Suvning boshqa suyuqliklardan farqli xususiyatlari haqida nima deya olasiz?
3. Tasavvur qilaylik, suvga biror kulolchilik buyumini tashladik. Nima deb o'ylaysiz, u qanday xotiralarni ayta oladi?
4. Nima uchun olimlar suvda xotira bor deb ta'kidlashgan?
5. Siz matnga yana qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz?
6. Hayotimizda suvning ahamiyati qanday?



molekula – moddaning eng kichik zarrachasi
funksiyasi – vazifasi



1. Yangi o'rganganlaringiz bo'yicha suv haqida uchta ma'lumot ayting.
2. Matndan olimlar suv bilan o'tkazgan tadqiqotlar yoritilgan gaplarni topib o'qing.
3. Matn mazmuniga mos reja tuzing.
4. Tuzgan rejangiz asosida matnni qayta hikoya qilib bering.



Mavzu yuzasidan fikringizni bayon eting.

Bilar edim

Bilib oldim

Bilmoqchiman

...

...

...



Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.
“Hayot – tomchi suvdadir” mavzusida matn tuzing.